

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

yaratish, universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlari o‘rtasida ekologik texnologiyalar bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish, tabiiy vositalarning samaradorligini baholovchi monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov, I.A. (2016). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Abdullayev, A., & Qodirov, B. (2020). *Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Xolmatov, T. (2018). *Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik xavfsizlik*. Samarqand: Zarafshon Nashriyoti.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). *Making Peace with Nature: A scientific blueprint to tackle the climate, biodiversity and pollution emergencies*. Nairobi.
5. FAO. (2017). *The future of food and agriculture – Trends and challenges*. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. Bobojonov, I., & Tursunov, B. (2019). *Qishloq xo‘jaligida ekologik toza texnologiyalar*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim.
7. World Health Organization (WHO). (2020). *Health and chemicals: roadmap towards a global framework*. Geneva.
8. Qodirova, D. (2022). *Tabiiy vositalardan foydalanishning ekologik va iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent: Ekologiya nashriyoti.

ABULQOSIM FIRDAVSIY VA UNING “SHOHNOMA” ASARI: EPIK YODGORLIK VA MILLIY O‘ZLIK RAMZI

Majidov Hamid Tursunmurod o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali: Tarix fakulteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulqosim Firdavsiyning hayoti va “Shohnoma” asarining mazmuni, badiiy xususiyatlari, tarixiy va madaniy ahamiyati ilmiy tahlil qilingan. Shohnoma-fors-tojik adabiyotining durdonasi, milliy o‘zlikni ifodalovchi epik yodgorlik sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: Firdavsiy, Shohnoma, fors adabiyoti, epik doston, Rustam, milliy madaniyat.

KIRISH

Fors-tojik adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan yirik siymolardan biri bu Abulqosim Firdavsiy (taxm.940-1020)dir. U o‘zining hayotini va iste’dodini yagona ulkan maqsad – fors

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tilida milliy epik doston yaratishga bag'ishladi. Shu yo'l bilan u forsiy so'z san'atining eng yirik durdonasi – "Shohnoma" asarini yaratdi. "Shohnoma" nafaqat epik yodgorlik, balki forsiy madaniyat, qadimiy tarix, urf-odatlar, qahramonlik va ma'naviyatning timsoliga aylangan bebaho manbadir.

Firdavsiyning hayoti va ijodiy yo'li

Firdavsiy asli Tus shahrining Paja qishlog'ida tug'ilgan, ilmi va boy oilada o'sgan. Yoshligidan she'riyatga oshno bo'lgan. Arab hukumronligi davrida arab tili hukumron bo'lsa-da, Firdavsiy fors tilini yashatish va boyitishga harakat qilgan. Uning asosiy ijodiy niyati-qadimgi eroniylar tarixini badiiy obrazlar orqali tiklash bo'lgan.

Shohnoma ustida u deyarli 30 yil ishlagan. Asarning yaratilishida asosiy manba bo'lib, qadimiy Xotaynomalar, Avesto, Xvaday-nomak, og'zaki rivoyatlar va tarixiy dostonlar xizmat qilgan.

"Shohnoma" asarining mazmuni va tuzilishi

"Shohnoma"- taxminan 50 ming baytdan ortiq bo'lgan forsiy epik doston bo'lib, dunyodagi eng uzun she'riy tarixiy asarlardan biri hisoblanadi. Asar uch asosiy davrni o'z ichiga oladi:

1. Afsonaviy davr- dunyoning yaratilishi, birinchi podshohlar (Keyumars, Hushang, Jamshid) haqida. Bu bo'limda mehr, adolat, donolik timsollari mavjud.

2. Qahramonlik davri- Rustam, Siyovush, Suhrob, Isfandiyor kabi qahramonlarning jangnomalari tasvirlanadi. Bu bo'limda epik urushlar, fidoyilik, sadoqat asosiy g'oya sifatida talqin etiladi.

3. Tarixiy davr- Eronning Sosoniylar sulolasigacha bo'lgan haqiqiy tarixiy voqealari yoritiladi. Iskandar Zulkarnayn (Aleksandr Makedonskiy) obrazi, Eron-Rum urushlari, Arab bosqini tasvirlanadi.

Bu bo'limlar orqali asar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari, siyosiy voqealari va inson fazilatlari aks ettirilgan monumental doston hisoblanadi.

Firdavsiyning san'atkori sifatidagi yuksak mahorati "Shohnoma" da quyidagicha namoyon bo'ladi:

Sof forsiy tilida yozilgan bo'lib, arabcha so'zlar deyarli ishlatilmagan.

Tasviriy vositalar (tashbeh, tajnis) kuchli. Har bir qahramon hayotiy, psixologik jihatdan chuqur yoritilgan.

Qahramonlar idealistik bo'lishi bilan birga, insoniy zaifliklarga ham ega.

Yuksak vatanparvarlik va adolat g'oyalari asosiy kontseptual yo'nalishni tashkil qiladi.

Tashbehtarlar va jang tasvirlari epik kuch va emotsional yuklanmaga ega.

"Shohnoma"- Eron va umuman fors-tojik xalqlari uchun milliy o'zbek ramzidir. Arab tilining hukumron bo'lgan davrida, bu doston fors tilini saqlab qolish, jonlantirish va yuksaltirish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Asar:

Forsiy adabiyotda epos janrining yetuk namunasi;

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tarixiy manba sifatida qadimiy Eron madaniyati haqida boy ma'lumot beradi;

Keyingi shoirlar (Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Bedil) ijodiga ta'sir ko'satgan;

Dunyo adabiyoti va san'atida katta iz qoldirgan (rasm, teatr, opera).

Bugungi kunda ham "Shohnoma" Eron, Tojikiston, Afg'oniston, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda ma'naviy meros sifatida qadrlanadi.

Xulosa

Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma" asari forsiy she'riyat, epik an'ana va xalq xotirasining betakror na'munasi bo'lib, o'z xalqining tarixini, e'tiqodini va orzu-umidlarini aks ettirgan. U bu asar orqali butun bir millatga o'z tilidan faxrlanish, tarixidan g'ururlanish imkonini berdi. Firdavsiyning merosi hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, balki milliy madaniyat va adabiyot taraqqiyotida yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Firdavsiy A. Shohnoma (tanlangan boblar), Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1997.
2. Rajabov A. Firdavsiy va uning shohnomasi. Dushanbe: Irfon, 2001.
3. Zarifov H. Fors-tojik adabiyoti tarixi, 1-jild. Toshkent: O'qituvchi, 1974.
4. Boboev S. Epik an'ana va tarixiy dostonlar, Samarqand: 2019.

СТАРОСЛАВЯНСКИЙ ЯЗЫК

Сафиев Тунисбек Фозилович

*Студент первого курса Шахрисабзского государственного
педагогического института направление родной язык и литература
(русский) в иноязычных группах*

Аннотация: В этой статье написано о происхождении старославянского языка — первого письменного языка славян. В статье рассматривается, как его создали Кирилл и Мефодий, чем он отличается от древнерусского, почему у него два алфавита (глаголица и кириллица) и как он повлиял на современные славянские языки. Ключевые слова: старославянский язык, Кирилл и Мефодий, глаголица, кириллица, церковнославянский, славянские языки, лингвистика, история языка.

Annotation: This article discusses the origin of the Old Church Slavonic language — the first written language of the Slavs. It examines how it was created by Cyril and Methodius, how it differs from Old East Slavic, why it has two alphabets (Glagolitic and Cyrillic), and how it influenced modern Slavic languages.